



CURRENT DIRECTIONS FOR THE IMPROVEMENT OF THE LAW OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN "ON THE STATE CIVIL SERVICE"

Dilmurodjon Rakhimov

Acting Associate Professor of the Academy of Public Policy and Administration under the President of the Republic of Uzbekistan

Researcher at the University of World Economy and Diplomacy

Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Science ID: DFR-0425-0002

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: state civil service, personnel, principle, state civil service system, evaluation, rotation.

Received: 28.07.26

Accepted: 29.07.26

Published: 30.07.26

Abstract: This article aims to analyze the legislative system of the Republic of Uzbekistan regarding the state civil service. The article examines some aspects of the Law of the Republic of Uzbekistan "On State Civil Service" and develops proposals and recommendations aimed at its improvement.

"DAVLAT FUQAROLIK XIZMATI TO'G'RISIDA"GI QONUNNI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB YO'NALISHLARI

Dilmurodjon Raximov

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasining dotsenti v.b.

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tadqiqotchisi

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ilmiy identifikatsiya raqami: DFR-0425-0002

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: davlat fuqarolik xizmati, kadr, prinsip, davlat fuqarolik xizmatining tizimi, baholash, rotatsiya.

Annotatsiya: Mazkur maqola O'zbekiston Respublikasining davlat fuqarolik xizmatiga oid qonunchilik tizimini tahlil qilishni maqsad qilgan. Maqolada O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunining ayrim jihatlarini

**АКТУАЛЬНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЗАКОНА
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН «О ГОСУДАРСТВЕННОЙ ГРАЖДАНСКОЙ
СЛУЖБЕ»**

Дилмуроджон Рахимов

И.о. доцент Академии государственной политики и

управления при Президенте Республики Узбекистан,

Исследователь Университета мировой экономики и дипломатии

Доктор философии (PhD) по юридическим наукам

Научный идентификационный номер: DFR-0425-0002

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: государственная гражданская служба, персонал, принцип, система государственной гражданской службы, оценка, ротация.

Аннотация: Целью данной статьи является анализ системы законодательства Республики Узбекистан о государственной гражданской службе. В статье рассматриваются некоторые аспекты Закона Республики Узбекистан «О государственной гражданской службе» и разрабатываются предложения и рекомендации, направленные на его совершенствование.

Kirish. So‘nggi yillarda mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmatini kadrlar bilan ta’minlash, uning huquqiy asoslarini takomillashtirish borasida keng islohotlar o‘tkazildi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev mazkur masalaga o‘zining Prezidentlikka nomzod sifatidagi saylovoldi dasturidayoq e’tibor qaratdi. 2016-yil 19-oktyabrda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII syezdidagi ma’ruzasida “Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlat xizmatchilariga yuksak talablar qo‘yishdan oldin ularning huquqlarini kafolatlash va himoya tizimi bilan mustahkamlash darkor. Masalaning o‘ta dolzarbligini e’tiborga olib, davlat xizmati bo‘yicha qonun qabul qilish vaqti keldi” [1], deb ta’kidlagan edi. Ushbu fikrlar davlat xizmatini zamonaviylashtirish, uning huquqiy asoslarini mustahkamlash, unga yosh, malakali, tashabbuskor, vatanparvar, bir so‘z bilan aytganda, eng munosib kadrlarni tanlab olishning samarali tizimi shakllanib, rivojlanib borishiga asos bo‘ldi. Natijada 2022-yil 8-avgustda O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi va davlat xizmati sohasida tarixiy voqea yuz berdi. Shu kuni O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Qonunda davlat fuqarolik xizmatiga kirish, uni o‘tash va tugatilish tartiblari, sohaga oid

davlat boshqaruvi, davlat fuqarolik xizmatchisining huquqiy maqomi, uni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish masalalari belgilandi [2]. Professor O.T. Xusanov to'g'ri aytganidek, Qonunning qabul qilinishi davlat fuqarolik xizmatchilari moddiy manfaatdorligining oshishi, sohaga qiziqishning kuchayishi va jamiyatda korrupsiyaning kamayishiga olib keladi [3].

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining davlat fuqarolik xizmatini tartibga soluvchi qonunchilikni tizimli tahlil qilish hamda "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashga qaratilgan kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot sifat (qualitative legal research) metodologiyasiga asoslanib, normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar va xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasi qiyosiy-huquqiy tahlil qilindi.

Tadqiqotning asosiy manbalarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi O'RQ-788-son "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonuni, davlat fuqarolik xizmatini tartibga soluvchi Prezident farmonlari va qarorlari, Hukumat qarorlari hamda Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan qabul qilingan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etdi. Shuningdek, davlat fuqarolik xizmati sohasiga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar hamda davlat xizmatining zamonaviy modellari yuzasidan ilmiy tadqiqotlardan foydalanildi.

Tadqiqot davomida formal-yuridik (dogmatik) metod yordamida amaldagi qonun normalarining mazmuni, ularning o'zaro uyg'unligi va qo'llash amaliyoti o'rganildi. Qiyosiy-huquqiy metod orqali O'zbekiston qonunchiligi Estoniya, Qozog'iston, Singapur, Janubiy Koreya, Fransiya va boshqa davlatlarning davlat fuqarolik xizmatiga oid qonunchiligi hamda xalqaro standartlar bilan taqqoslandi. Tizimli tahlil metodi asosida davlat fuqarolik xizmatining institutsional tuzilmasi, xizmatni o'tash bosqichlari, kadrlarni tanlash, baholash, rotatsiya qilish va xizmatni tugatish bilan bog'liq huquqiy mexanizmlar o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi.

Bundan tashqari, mantiqiy-huquqiy, induktiv va deduktiv metodlardan foydalanish orqali amaldagi qonunchilikdagi huquqiy bo'shliqlar, kolliziyalar va amaliyotda uchrayotgan muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalarini shakllantirishda qonunchilik normalari va ularni qo'llash amaliyoti o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish jarayonida davlat fuqarolik xizmatining rivojlanish tendensiyalari inobatga olindi.

Mazkur metodologik yondashuv amaldagi qonunchilikning afzallik va kamchiliklarini har tomonlama baholash, xalqaro tajriba bilan taqqoslash hamda "Davlat fuqarolik xizmati

to'g'risida"gi Qonunni takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Muhokama va natijalar. Mazkur sohani yanada rivojlantirish uchun bir qator tizimlashgan yo'nalishlarda islohotlarni amalga oshirish davlat fuqarolik xizmati natijadorligining o'sishiga xizmat qiladi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 4-avgustda davlat xizmatini rivojlantirishda yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda "Hozirgi kunda bu sohada 118 ming kishi mehnat qilyapti. Lekin, natijadorlik bo'yicha aytganda, hali davlat xizmati xalqni rozi qiladigan tizimga aylangani yo'q" [4], deb ta'kidlagan edi. Ma'muriy islohotlar jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil yanvardagi PF-14-son Farmoniga ko'ra, davlat boshqaruv organlarining 17 447 ta shtat birliklari qisqartirildi [5]. Mana shunday sharoitda davlat fuqarolik xizmatini zamonaviy standartlar asosida rivojlantirish, uni eng munosib kadrlar bilan ta'minlashning dolzarbligi yanada oshadi.

Bizningcha, davlat fuqarolik xizmatini takomillashtirishning eng muhim jihatlaridan biri uning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash hisoblanadi. Bunda "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunni ilmiy-amaliy mulohazalar va xorijiy davlatlar tajribasi asosida yanada takomillashtirish lozim. Avvalo, davlat fuqarolik xizmatining prinsiplari haqida bir qancha mulohazalarni bildirish mumkin. Qonunning 5-moddasida adolatlilik, xolislik, ochiqlik va shaffoflik kabi prinsiplar belgilandiki, ushbu prinsiplar xizmatga nomzodlarning tanlab olishning mustaqilligi, ochiqligi va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi, deyish mumkin. Adolatlilik va xolislik prinsiplari davlat fuqarolik xizmatida kadrlarni tanlashda, ularning bilimi va salohiyatini baholashda tanlov komissiyasi a'zolariga o'ziga xos mas'uliyat yuklaydi. Ularning har bir nomzodga bir xil munosabatda bo'lishlariga, tanlov jarayonini obyektiv o'tkazishlariga turtki bo'ladi, deyish mumkin. Ochiqlik va shaffoflik prinsiplari, bir tomondan, vakant lavozimlarning nomzodlar uchun ochiq e'lon qilinishidan tortib, tanlov jarayonlarining ochiq, shaffof tarzda amalga oshirilishigacha bo'lgan jarayonlarda namoyon bo'lsa, boshqa tomondan, davlat organlari va davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatining ham ochiq, oshkor, xalq manfaatlari yo'lida olib borilishini ta'minlaydi. Umuman olganda, ushbu moddada jami o'nta prinsip sanab o'tilgan bo'lib, ularni yana bir qancha prinsiplar bilan to'ldirish mumkin. Masalan, Qozog'istonning "Davlat xizmati to'g'risida"gi qonunining 4-moddasida davlat xizmatining asosiy prinsiplari sifatida 20 ta prinsip o'rin olgan [6]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktyabrdagi 595-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalari"da davlat xizmatchilarining xizmatdagi xulq-atvorining asosiy prinsiplari belgilanganki [7], ularning ayrimlarini qonun darajasida mustahkamlash lozim. Shuningdek, huquqshunoslar G. Atamanchuk [8], D. Baxrax [9], O.

Xusanov [10], Sh. Asadov [11], F. Yuldasheva [12], A. Akilov [13] o'z tadqiqotlarida davlat fuqarolik xizmatini prinsiplari haqida takliflarni ilgari suradi. Tadqiqot va tahlillar natijasida "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasiga quyidagi muhim prinsiplarni ham kiritish taklif etiladi: davlat fuqarolik xizmatchilarining lavozim va malaka darajasining o'sishi istiqbollari (G. Atamanchuk, D. Baxrax); vatanparvarlik, xalqqa xizmat qilish va xizmat burchiga fidoiylilik (Sh. Asadov, F. Yuldasheva); davlat va jamiyat manfaatlariga sodiqlik (595-son qaror); manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik (595-son qaror); davlat fuqarolik xizmatchilarining hisobdorligi va javobgarligi (O. Xusanov, Sh. Asadov, F. Yuldasheva); davlat fuqarolik xizmatchilarining xizmat faoliyatiga noqonuniy aralashuvdan himoya qilish (O. Xusanov, A. Akilov). Qonunda ushbu prinsiplarning aks etishi uni mazmunan boyitishga, davlat fuqarolik xizmatining samaradorligining oshishiga, ushbu faoliyatning mustaqil va xolisona olib borilishiga, xizmat va daraja bo'yicha o'sib borish kafolatiga xizmat qiladi.

Qonunning 21-moddasida davlat fuqarolik xizmatining tizimi davlat fuqarolik xizmatchilarini "tanlab olish, hisobga olish, joy-joyiga qo'yish, ularning mehnatiga haq to'lash, kasbiy kompetensiyasini oshirish va xizmatda lavozim bo'yicha ko'tarish" mexanizmlaridan iboratligi belgilangan. Biroq, ushbu moddada davlat fuqarolik xizmatining tizimi o'z ichiga barcha elementlarni qamrab olmagan. Bir guruh mutaxassislar davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatining samaradorligini baholash davlat fuqarolik xizmatining ajralmas qismi ekanligi ta'kidlashadi [14]. Bundan tashqari, huquqshunos Q. Umidullayev o'z ilmiy ishida mahalliy ijro hokimiyati organlari [15], huquqshunos Z. Israilova esa mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari [16] faoliyatining samaradorligini baholash mexanizmlarini taklif etishadi. Baholash natijalariga ko'ra, davlat fuqarolik xizmatchilarini rag'batlantirish choralari ko'rilishi mumkin. Shu sababli, davlat fuqarolik xizmati tizimining mexanizmlari (elementlari) qatoriga davlat fuqarolik xizmatchilarini rag'batlantirish, faoliyatini baholash jarayonlarini kiritish maqsadga muvofiq. Moddadagi "lavozim bo'yicha ko'tarish" jumlasini o'rniga "lavozim bo'yicha harakatlanish" jumlasining qo'llanilishi to'g'riroq bo'lar edi. Negaki, davlat fuqarolik xizmatchisi baholash natijalariga ko'ra, nafaqat lavozim bo'yicha o'sishi, balki lavozim bo'yicha tushishi yoki rotatsiya asosida boshqa teng lavozimga o'tishi mumkin. Bundan tashqari, huquqshunoslar S. Yusupov va F. Isayevaning qayd etishicha, davlat xizmatchisining o'qishga kirishi munosabati bilan mansabidan ozod qilinishi, shuningdek, o'qishni tamomlaganidan so'ng mansab lavozimiga tayinlanishi ham mumkin [17]. Bularning barchasi "lavozim bo'yicha harakatlanish" jumlasida mujassam bo'lishi mumkin.

"Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunni takomillashtirishda uning qo'llanish sohasi, davlat fuqarolik xizmatiga kirish tartibida malaka talablari va sinov muddatiga oid

moddalarni kiritish maqsadga muvofiq. “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasida “malaka talablari” tushunchasi izohlab o‘tilgan. Bu nomzodning vakant lavozim yoki malaka darajasini egallashi uchun uning ish tajribasiga va kasbiy kompetensiyasiga doir talablardir. Nazarimizda, malaka talablarining xususiyatlari to‘liqroq tartibda alohida moddada ko‘rsatilishi lozim. Masalan, Rossiyaning “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni (12-modda) [18] va Qozog‘istonning “Davlat xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni (17-modda)da [6] “malaka talablari”ga alohida moddalar ajratilgan. Qonunning “Davlat fuqarolik xizmatiga kirish tartibi” deb nomlangan 6-bobiga malaka talablari bilan bog‘liq maxsus modda kiritilib, unda nomzodning vakant lavozim yoki malaka darajasini egallashi nimalarga asoslanishi, shuningdek, ushbu mexanizmlar alohida qonunosti hujjati bilan tartibga solinishining belgilanishi maqsadga muvofiq.

Ta’kidlash joizki, davlat fuqarolik xizmatiga kirishning muhim mexanizmlaridan biri “davlat fuqarolik xizmatida sinov muddati” hisoblanadi. Lekin ushbu mexanizm Qonundan o‘rin olmagan. Qonunning 6-bobiga “Davlat fuqarolik xizmatida sinov muddati” deb nomlangan alohida moddani kiritish taklif etiladi. MDH Parlamentlararo Assambleyasining “Davlat xizmati asoslari to‘g‘risida”gi namunaviy qonunida davlat xizmatchilarining sinov muddatiga oid alohida modda tavsiya etilgan (10-modda) [19]. Qozog‘istonning “Davlat xizmati to‘g‘risida”gi Qonunining 20-moddasi [6] ham “sinov muddati”ga bag‘ishlangan. Rossiya, Ozarbayjon, Qirg‘izistonning maxsus qonunlarida ham “sinov muddati”ga oid normalar mavjud. To‘g‘ri, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida “dastlabki sinov” masalasiga oid moddalar mavjud [20]. Lekin davlat fuqarolik xizmatchilarining ishga loyiqqligini sinash masalasi umumiy mehnat qonunchiligi qoidalaridan farq qilishi lozim. Huquqshunos X.S. Xayitov ham davlat fuqarolik xizmatchisi bilan tuziladigan mehnat shartnomasida dastlabki sinovni o‘tash shartlashilgan bo‘lishi lozimligini qayd etadi [21]. Taklif etilayotgan moddada sinov muddatining tartibi va xususiyatlari aniq belgilanishi lozim. Ushbu moddada maxsus Qonunning amal qilishi davlat fuqarolik xizmatchisiga sinov muddati davomida tatbiq etilishi, biroq sinov muddati tugagunga qadar davlat fuqarolik xizmatchisiga navbatdagi malaka darajasi berilmasligi kabi normalar belgilanishi mumkin.

Davlat fuqarolik xizmatida malaka darajalari joriy qilingani sohadagi katta yangiliklardan biri bo‘ldi. “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunning 24-moddasiga ko‘ra, davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining o‘nta malaka darajalari belgilandi. Ushbu qonun qabul qilingunga qadar faqatgina davlatning maxsus xizmatchilari maxsus unvon, martaba va malaka darajalarini ega bo‘lgan. Endilikda fuqarolik xizmatchilari ham lavozimi, ish staji hamda malaka oshirish natijalariga ko‘ra, malaka darajalariga ega bo‘ladi. Bu davlat fuqarolik xizmatini kadrlar bilan ta’minlashga, ushbu sohaga bo‘lgan qiziqishning ortishiga xizmat qiladi, deyish mumkin.

Shu o'rinda qonunchilikda davlat fuqarolik xizmatining malaka darajalari hamda davlat xizmatining boshqa sohalaridagi unvon, martaba va darajalarning taqqoslanmasi belgilanib, davlat xizmati bir turidan boshqasiga o'tganda oldingi unvon va darajalar inobatga olinishiga oid norma ham belgilanishi maqsadga muvofiq. Vaholanki, bu kabi qoidalar davlat xizmatining boshqa turlarida (masalan, ichki ishlar, Milliy gvardiya, bojxona, prokuratura, adliya, sud, soliq organlarida xizmatni o'tash to'g'risidagi tartib-qoidalarda) belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunidagi ayrim normalar bir qancha qonunosti hujjatlariga havola qilingan. Lekin ularning aksariyati hali qabul qilinmadi. Shuning uchun davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining reyestri, davlat fuqarolik xizmatida tanlov o'tkazish, Milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish, davlat fuqarolik xizmatchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish, malaka darajalarini berish, rotatsiya qilish jarayonlarini huquqiy jihatdan tartibga solish zarur. Ularning mexanizmlarini belgilamasdan turib, Qonunning to'liq realizatsiyasini ta'minlab bo'lmaydi. Chunki ushbu qonunda keltirilgan ko'plab normalar umumiy belgilangan bo'lib, ularni amaliyotga tadbiq etish mexanizmlari hali to'liq shakllanmagan. Masalan, davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining reyestri bo'yicha huquqiy asoslarning mavjud emasligi kadrlar siyosatini tizimli yuritishda muammolarga olib kelmoqda. Shu bois ushbu reyestrni ishlab chiqish va tasdiqlash zarur, bu esa davlat xizmatchilarining aniq kategoriyalar bo'yicha tasniflanishini va ularga qo'yiladigan talablarning aniq belgilanishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, davlat fuqarolik xizmatida tanlov o'tkazish jarayonlarini tartibga solish ham dolzarb masalalardan biridir. Hozirgi paytda davlat xizmatiga kirish jarayoni to'liq shaffof va adolatli tizimga ega emasligi sababli, nomzodlarni tanlashda imkoniyatlar tengligini ta'minlaydigan qoidalar ishlab chiqilishi kerak.

Shuningdek, Milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu tizim kelajakda yuqori lavozimlarga loyiq bo'lgan malakali va tajribali mutaxassislarni tayyorlash hamda ularning kasbiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Davlat fuqarolik xizmatchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki zamonaviy davlat boshqaruvi yangi bilim va ko'nikmalarni talab qiladi. Davlat xizmatchilarini uzluksiz o'qitish va rivojlantirish tizimini yaratish ularning samarali ishlashiga va innovatsion yechimlarni ishlab chiqishiga yordam beradi. Lekin hozirda bu boradagi normativ hujjatlar to'liq ishlab chiqilmagan.

Malaka darajalarini berish va rotatsiya tizimini huquqiy jihatdan tartibga solish ham dolzarb masalalardan biridir. Malaka darajalarining aniq belgilanishi davlat xizmatchilarining kasbiy rivojlanishini rag'batlantiradi, ular uchun xizmat pog'onalarida o'sish imkoniyatini

yaratadi. Rotatsiya esa davlat boshqaruvini yanada samarali tashkil etishga, kadrlarning harakatlanishini optimallashtirishga va tajribani turli hududlar va organlar o'rtasida taqsimlashga xizmat qiladi.

“Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi Qonunning 52-moddasi ikkinchi qismida davlat organining qonunga xilof qarorlari yoki mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida davlat fuqarolik xizmatchisining buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksida belgilangan tartibda amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Mazkur norma davlat fuqarolik xizmatchisining sud orqali himoya qilinish huquqini kafolatlashga qaratilgan bo'lsa-da, unda sudlovga taalluqlilik masalasi amaldagi protsessual qonunchilik bilan to'liq uyg'unlashtirilmagan. Chunki davlat fuqarolik xizmatchisining xizmatni o'tash jarayonida yuzaga keladigan ayrim nizolar o'zining huquqiy mohiyatiga ko'ra ommaviy-huquqiy emas, balki xizmat (mehnat) munosabatlaridan kelib chiqadigan individual mehnat nizolari hisoblanadi.

Xususan, davlat fuqarolik xizmatchisini lavozimga tayinlash yoki boshqa lavozimga o'tkazish, lavozimidan ozod etish, lavozimga tiklash, intizomiy jazo qo'llash, xizmat shartlarini o'zgartirish, ish haqi va boshqa to'lovlarni undirish, xizmatni noqonuniy to'xtatish natijasida yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni qoplash kabi masalalar davlat fuqarolik xizmatchisining individual mehnat (xizmat) huquqlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'ladi. Mazkur nizolarda davlat organi bir tomondan davlat hokimiyati vakolatlarini amalga oshirayotgan bo'lsa-da, ikkinchi tomondan ish beruvchi sifatida xizmat munosabatlarining subyekti hisoblanadi. Shu sababli bunday nizolar mazmunan mehnat-huquqiy nizolar sifatida namoyon bo'ladi.

Amaldagi sud amaliyotida ham davlat fuqarolik xizmatchilarining xizmatni o'tash bilan bog'liq ko'plab nizolari fuqarolik sudlari tomonidan Fuqarolik protsessual kodeksi asosida ko'rib chiqilmoqda. Mazkur holat qonundagi havola normasining amaliyot bilan to'liq mos emasligini ko'rsatadi. Natijada davlat fuqarolik xizmatchisi qaysi sudga murojaat qilishi kerakligi masalasida huquqiy noaniqlik yuzaga kelishi, sudlar o'rtasida sudlovga taalluqlilik bo'yicha tortishuvlar paydo bo'lishi hamda buzilgan huquqlarni tiklash jarayonining cho'zilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, mazkur o'zgartirish davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy himoyasi kafolatlarini kuchaytiradi, ularning xizmat faoliyatida qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi hamda davlat organlari bilan xizmat munosabatlarida taraflarning protsessual tengligini ta'minlashga ko'maklashadi. Natijada davlat fuqarolik xizmatchilarining

sudga murojaat qilish huquqi yanada aniq va samarali amalga oshiriladi, bu esa davlat fuqarolik xizmatining barqarorligi, qonuniyligi va jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilganda, davlat fuqarolik xizmatini takomillashtirish bo'yicha so'nggi yillarda muhim islohotlar amalga oshirildi. 2022-yilda qabul qilingan "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonun davlat xizmati tizimini huquqiy jihatdan mustahkamlashga, davlat xizmatchilarining huquqlarini himoya qilishga va korrupsiyani kamaytirishga xizmat qiladi. Shunga qaramay, Qonundagi ayrim kamchiliklar hamda sohaga oid ba'zi qonunosti hujjatlari hali qabul qilinmaganligi sababli tizimni yanada takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Shu bois, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchidan, davlat fuqarolik xizmatining samaradorligining oshirish, ushbu faoliyatning mustaqil va xolisona olib borilishini, shuningdek, xizmat va daraja bo'yicha o'sib borishni kafolatlash maqsadida "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonun prinsiplarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Davlat fuqarolik xizmatida vatanparvarlik va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish, davlat va jamiyat manfaatlariga sodiqlik, xizmat faoliyatida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, hisobdorlik va javobgarlikni ta'minlash hamda ularning xizmat faoliyatiga noqonuniy aralashuvga yo'l qo'ymaslik kabi prinsiplari qonunda mustahkamlash maqsadga muvofiq. Mazkur prinsiplarning qonunda mustahkamlanishi davlat fuqarolik xizmatchilarining kasbiy faoliyatida yuksak axloqiy va xizmat qadriyatlarini qaror toptirish, davlat va jamiyat manfaatlari ustuvorligini ta'minlash, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, davlat organlari faoliyatining hisobdorligi va javobgarligini kuchaytirish, shuningdek davlat fuqarolik xizmatchilarining xizmat faoliyatini har qanday noqonuniy aralashuvdan himoya qilishning huquqiy kafolatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada davlat fuqarolik xizmatining samaradorligi, mustaqilligi, xolisligi va jamoatchilik ishonchi oshadi.

Ikkinchidan, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunni takomillashtirishda uning qo'llanish sohasi, davlat fuqarolik xizmatiga kirish tartibida malaka talablari va sinov muddatiga oid moddalarni maqsadga muvofiq. Mazkur normalarning takomillashtirilishi davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilishda huquqiy aniqlikni ta'minlash, malakali va raqobatbardosh kadrlarni tanlashning meritokratiya tamoyillarini mustahkamlash hamda sinov muddatini xodimning kasbiy layoqati va xizmatga mosligini samarali baholash vositasi sifatida takomillashtirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, 52-moddaning ikkinchi qismidagi "Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksida belgilangan tartibda" degan jumlaning "Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan tartibda" degan tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday o'zgartirish, birinchidan, xizmat (mehnat) nizolarining huquqiy tabiatiga mos keladi; ikkinchidan,

protsessual qonunchilik bilan uyg'unlikni ta'minlaydi; uchinchidan, davlat fuqarolik xizmatchilarining konstitutsiyaviy sud himoyasi huquqini yanada samarali amalga oshirishga xizmat qiladi; to'rtinchidan, sudlovga taalluqlilik bo'yicha mavjud huquqiy noaniqliklarni bartaraf etadi hamda yagona sud amaliyotini shakllantirishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 1-жилд, 2017. – Б. 58.
2. О'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-788-son Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.08.2022-y., 03/22/788/0723-son.
3. Хусанов О.Т. Ўзбекистонда давлат фуқаролик хизмати ҳуқуқий асосларининг ривожланиш истиқболлари. // "Социология ва ҳуқуқ" журнали. – № 1, 2022. – Б. 59-64.
4. Мирзиёев Ш.М. Ихчам ва самарали бошқарув тизимини яратиш вазифаси қўйилди. // "Янги Ўзбекистон" газетаси, – № 158 (680). 2022 йил 5 август.
5. О'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" PF-14-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.01.2023-y., 06/23/14/0053-son.
6. Закон Республики Казахстан «О государственной службе Республики Казахстан». // <https://online.zakon.kz/>
7. О'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 595-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.10.2022-y., 09/22/595/0921-son.
8. Атаманчук Г.В. Сущность государственной службы: история, теория, закон, практика: Монография. – М.: РАГС, 2010. – С. 14.
9. Бахрах. Д.Н. Государственная служба: основные понятия, ее составляющие, содержание и принципы. // Государство и право. – № 12, 1996. – С. 10-18.
10. Мирбобоев Б., Хусанов О., Бегматов А. Ўзбекистон давлат хизматини ташкил этишнинг ташкилий ҳуқуқий масалалари. – Т.: Akademiya, 2005. – Б. 22-36.
11. Асадов Ш.Ғ. Ўзбекистон Республикаси давлат суверенитетини таъминлашнинг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш: ю.ф.д. ... дисс. – Т., 2019. – Б. 90-93.
12. Юлдашева Ф.У. Ўзбекистон Республикасида давлат хизматига кириш ва ўташнинг ҳуқуқий механизмини такомиллаштириш: ю.ф.ф.д. ... дисс. – Т., 2021. – Б. 43-52.

13. Акилов А., Олимова Г. Понятие, система и принципы государственной службы // “Давлат хизмати тизимини ислоҳ қилиш шароитида давлат кадрлар сиёсати: Ўзбекистон тажрибаси ва хорижий амалиёт” мавзuidaги халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари. – Т., 2019. – Б. 8-14.
14. Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatining samaradorligini baholash mexanizmlari [Matn] / Mualliflar jamoasi. – Т.: “Yangi kitob”, 2020. – 176 b.
15. Умидуллаев Қ.У. Ўзбекистонда маҳаллий ижро ҳокимияти органлари фаолияти самарадорлигини баҳолашнинг назарий-ҳуқуқий асослари: ю.ф.ф.д. ... дисс. – Т. 2020. – 173 б.
16. Исраилова З.С. Ўзбекистонда маҳаллий давлат ҳокимияти вакиллик органлари фаолиятининг самарадорлигини баҳолаш механизмини такомиллаштириш: ю.ф.ф.д. ... дисс. – Т. 2020. – 198 б.
17. Davlat xizmati. [Matn]: darslik. / Yusupov S.B., Isayeva F.B. – Т.: TDYU, 2022. – В. 94.
18. Федеральный закон «О государственной гражданской службе Российской Федерации». // www.consultant.ru
19. Постановление Межпарламентской Ассамблеи государств – участников Содружества Независимых Государств «О модельном законе «Об основах государственной службы», 1998. // <http://www.levonevski.net>
20. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.10.2022-y., 02/22/798/0972-son.
21. Хайитов Х.С. Фуқароларни давлат фуқаролик хизматига қабул қилишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари. // “Давлат хизмати тизимини ислоҳ қилиш шароитида давлат кадрлар сиёсати: Ўзбекистон тажрибаси ва хорижий амалиёт” мавзuidaги халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари. – Т., 2019. – Б. 27-32.